Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

01 October – 14 November 2026

UDK 94

XIX ASR OXIRIDA ROSSIYA-AFG‘ONISTON CHEGARASINI BELGILASHDA YER, SUV VA YAYLOVLARDAN FOYDALANISH MASALALARI (1885-1887)

Qanoatxon Tilavoldi qizi Abduraimova*

Farg‘ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi tayanch doktoranti

✉ abduraimovaqanoat@gmail.com

ANNOTATSIYA

Tezisda 1885–1887-yillardagi Rossiya–Afg‘oniston chegarasini belgilash jarayoni mahalliy yer, suv va yaylovlardan foydalanish masalalari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Diplomatik protokollar, chegara komissiyasi ishtirokchilarining kuzatuvlari, Amir Abdurahmonxon esdaliklari va zamonaviy tarixshunoslik o‘z vazifasiga muvofiq qiyoslanadi. Asosiy e’tibor chegarani belgilashda hududiy da’volar bilan birga mavsumiy yaylovlar, dehqonchilik yerlari va sug‘orish kanallarining amaliy ahamiyati qanday namoyon bo‘lganiga qaratiladi.

Kalit so‘zlar

Rossiya imperiyasi, Afg‘oniston, Panjdeh, chegara komissiyasi, demarkatsiya, yaylov, sug‘orish, Kushk, Murg‘ob, Abdurahmonxon

DOI: 10.5281/zenodo.23682512

Kirish

XIX asrning 80-yillarida Rossiyaning Marv va unga tutash hududlarda mavqeini kengaytirishi Afg‘onistonning shimoliy-g‘arbiy chegarasini belgilash masalasini keskinlashtirdi. 1885-yil martida Panjdeh atrofida yuz bergan qurolli to‘qnashuv chegra masalasini dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘ydi.

Ushbu tezisning maqsadi demarkatsiyani faqat davlatlararo siyosiy kelishuv sifatida emas, balki yer, suv va yaylovlardan foydalanish tartibiga aloqador jarayon sifatida ko‘rsatishdir. Bu masalada dalillar vazifasi bo‘yicha farqlanadi: diplomatik hujjatlar kelishilgan qoidalarni, Yate va Holdichning bayonlari esa komissiya faoliyati davomida kuzatilgan geografik va xo‘jalik sharoitlarini yoritadi**.**

Adabiyotlar tahlili

V. V. Bartold 1885-yilgi Rossiya–Afg‘oniston qarama-qarshiligini Markaziy Osiyoda Rossiya ta’sirining kengayishi bilan bog‘liq tarixiy jarayon sifatida yoritadi [1, 221–222-b.]. Chegarani belgilash ishlari Panjdeh inqirozidan oldin boshlangan edi. 1880-yillarning boshidagi muzokaralar va komissiya tuzish jarayoni Rossiya–Britaniya raqobatining davomiy qismi sifatida ko‘rsatiladi [2, 364–368-b.].

G. A. Hidoyatov Panjdeh voqeasini Britaniya ekspansiyasi va Markaziy Osiyodagi raqobat nuqtayi nazaridan tahlil qiladi [6, 58–62-b.]. Ushbu sovet davri talqini voqeaning imperiyalararo siyosiy sabablarini yoritadi; mahalliy yaylov va sug‘orish tartiblarini aniqlashda esa bevosita komissiya kuzatuvlari va diplomatik hujjatlar ko‘proq daliliy ahamiyatga ega.

A. O. Jollyning tadqiqoti chegara komissiyasini faqat Rossiya–Britaniya raqobati doirasida emas, balki Britaniya Hindistonining Afg‘onistonning shimoli-g‘arbiy hududlariga ta’sirini kuchaytirishga urinishlari bilan ham bog‘laydi [7, 31–55-b.].

Francesca Fuoli ham Maimana va unga tutash hududlarda demarkatsiya jarayoni Kobul hukumatining mahalliy hokimiyatini kengaytirish hamda Britaniya vakillarining mahalliy elitalar bilan aloqalar o‘rnatishiga imkon yaratganini ko‘rsatadi [8, 5–6-b.].

Manbalarni qiyosiy baholash

Manbalarni qiyoslashda ularning janri va siyosiy nuqtayi nazarini hisobga olish lozim. Yate va Holdich komissiya ishtirokchilari sifatida joylardagi geografik sharoitni tasvirlaydi, biroq ularning kuzatuvlari ham Britaniya missiyasining tajribasi bilan chegaralangan [9, 175–179-b.].

Abdurahmonxonning esdaliklari Afg‘oniston hukmdorining hududiy yaxlitlik haqidagi qarashlarini ochib beradi, lekin ular voqealarga bevosita manfaatdor tomonning retrospektiv bayonidir [5, II jild, 149–152-b.]. Romodin esa «Siroj at-tavorix» va afg‘on rasmiy tarixshunosligi materiallarini tahlil qilib, chegara siyosatining tarixiy talqinini ko‘rib chiqadi [12, 88–94-b.].

1886-yilda nashr etilgan “Афганское разграничение. Переговоры между Россией и Великобританией. 1872–1885” to‘plami diplomatik muzokaralarning hujjatli ketma-ketligini o‘rganish uchun muhimdir [13, 215–219-b.].

F. F. Martens nashr etgan 1887-yilgi Sankt-Peterburg protokoli esa Rossiya tomonidan e’lon qilingan birlamchi diplomatik matn bo‘lib, chegaraning ayrim qismlari va ularga tegishli shartlarni tekshirish imkonini beradi [14, 464–468-b.].

Bartoldning asari mintaqadagi Rossiya kengayishining umumiy tarixiy fonini yoritadi, ammo mahalliy suv yoki yaylovlardan foydalanish holatini bevosita tasdiqlovchi manba emas [1, 221–222-b.]. Rodenboughning 1885-yilda chop etilgan kitobi esa Panjdeh inqirozi va o‘sha paytdagi strategik xavotirlarni ko‘rsatadi, lekin 1887-yilgi demarkatsiya qoidalarini tasdiqlash uchun ishlatilmasligi kerak [3, 124-b.].

Natijalar va muhokama

Panjdeh inqirozi va chegarani belgilashning siyosiy sharoiti

Amir Abdurahmonxon o‘z esdaliklarida shimoli-g‘arbiy chegarani belgilash uchun 1884-yilda qo‘shma komissiya tuzilganini, Britaniya missiyasiga general ser Piter Lumsden boshchilik qilganini va Rossiyaning Panjdeh tomon siljishini Afg‘oniston hududiy yaxlitligiga tahdid sifatida qabul qilganini yozadi [4, I jild, 241–245-b.]. Bu bayon amirning siyosiy nuqtayi nazarini ochib beradi, biroq uning Rossiya va Britaniya niyatlariga bergan baholarini muallifning shaxsiy talqini sifatida o‘qish lozim. Amir Rossiya bilan chegarani belgilashni Afg‘oniston yerlarini saqlab qolish va tashqi kuchlar bosimini cheklash masalasi sifatida tasvirlaydi [5, II jild, 149–152-b.]. Bu manba afg‘on hukmdorining pozitsiyasini ifodalaydi, lekin hududiy qarorlarning amaliy natijalarini mustaqil ravishda isbotlamaydi.

Yer va yaylovlardan foydalanish

Chegara hududining xo‘jalik tuzilishi ekin maydonlari va keng yaylovlarning yonma-yon joylashuvi bilan ajralib turgan. C. E. Yate Hari Rud, Kushk, Kashan va Murg‘ob vodiylarida ekin ekishga yaroqli yerlar ko‘proq daryo bo‘yidagi tor tasmalarda joylashganini, atrofdagi hududlarning esa katta qismi yaylovlardan iborat bo‘lganini tasvirlaydi [9, 175–176-b.].

Demarkatsiya davrida yaylovdan foydalanish huquqi faqat xaritadagi hududiy egalik bilan aniqlanmagan; chorva qaysi masofagacha haydalganini ko‘rsatuvchi amaliy dalillar ham yig‘ilgan. Fuoli Andxuy va Qila Vali yaylovlari bo‘yicha mahalliy cho‘ponlardan suruvlar qaysi hududlarda boqilgani haqida ma’lumot olish so‘ralganini qayd etadi [8, 12–13-b.].

Yate Au Rahak va Islim atrofidagi yaylovlardan foydalanish masalasi ko‘rib chiqilganini va tartib ikki tomondagi manfaatlarni muvozanatlashga qaratilganini yozadi [9, 176–177-b.]. Bu misol yaylovlardan foydalanish demarkatsiya ishining alohida amaliy muammolaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi; biroq bitta hududdagi kelishuvni butun chegara bo‘ylab barcha jamoalarning huquqlari to‘liq himoyalanganiga dalil sifatida umumlashtirib bo‘lmaydi.

Kushk vodiysidagi Chaman-i-Bed atrofida yerga ishlov berish masalasi ham hududiy da’volar bilan tutashgan. Panjdeh turkmanlari ayrim maydonlarni ekishga kirishgan va bunday foydalanish holatlari komissiya muhokamalarida hududiy da’volarga dalil sifatida keltirilgan[9, 177-b.]. Demak, yerning siyosiy mansubligini aniqlashda nafaqat tarixiy da’volar, balki amaldagi foydalanish holatlari ham ahamiyat kasb etgan.

Suv va sug‘orish masalalari

Suvdan foydalanish chegara chizig‘ining xo‘jalik hayotiga ta’sirini ko‘rsatadigan asosiy masalalardan biri edi. Kushk vodiysidagi hosil bahorgi yog‘ingarchilik va daryo oqimiga bog‘liq bo‘lgan, yuqori oqimda suv iste’molining ortishi quyi oqimdagi dehqonlar uchun muammo tug‘dirishi mumkin edi[9, 178–179-b.].

Chaman-i-Bed atrofidagi kanal Kushk daryosidan suv olgan. Bu kanalning bosh qismi va suvning kelib chiqish joyi chegara chizig‘i bilan bog‘liq muhokamalarda muhim bo‘lgan [9, 178-b.]. Bu kuzatuv suv manbasi, kanal yo‘nalishi va sug‘oriladigan yerlar bir-biridan ajratib qaralmasligi kerakligini ko‘rsatadi.

1885-yil 10-sentabrdagi London protokoli komissiyaga chegarani Hari Rud va Oksus oralig‘ida belgilash jarayonini davom ettirish hamda mahalliy aholi ehtiyojlarini e’tiborga olish vazifasini yuklagan [10, 243–244-b.]. Ushbu protokolni suvdan foydalanish bo‘yicha barcha mahalliy nizolarni hal qilgan hujjat deb talqin qilish mumkin emas: uning vazifasi demarkatsiya uchun umumiy tartib va tamoyillarni belgilash edi.

1887-yilgi protokol chegaraning ayrim qismlarini aniqroq tavsiflaydi va suv hamda kanalga oid ayrim qoidalarni qayd etadi [10, 248–250-b.]. Shu sababli 1885-yilgi siyosiy kelishuv va keyingi demarkatsiya hujjatlarini bir-biridan farqlash zarur: muzokara tamoyillarining kelishilishi bilan chegara joyida belgilanishi bir xil bosqich emas.

T. H. Holdich komissiya ishlari davomida Murg‘ob vodiysi, sug‘oriladigan yerlar va kanallarni tasvirlab, daryo vodiysi mahalliy dehqonchilikning geografik asoslaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi [11, 150–153-b.]. Uning kuzatuvlari Yate qayd etgan suvga bog‘liq xo‘jalik sharoitini boshqa komissiya ishtirokchisining tajribasi orqali to‘ldiradi.

Xulosa

1885–1887-yillardagi Rossiya–Afg‘oniston chegarasini belgilash jarayoni siyosiy raqobat bilan bir qatorda chegara hududidagi yer, yaylov va suvdan foydalanish masalalariga ham bog‘liq bo‘lgan. Yate qayd etgan yaylov, ekin maydoni va daryo vodiysi haqidagi kuzatuvlar mahalliy xo‘jalikning tabiiy resurslarga qanchalik bog‘liqligini ko‘rsatadi [9, 175–179-b.].

Aitchison to‘plamida e’lon qilingan 1887-yilgi protokol chegaraning ayrim qismlarini aniqroq tavsiflaydi [10, 248–250-b.]. Rossiya diplomatik hujjatlari to‘plamida chop etilgan 1887-yil 10 (22)-iyuldagi Sankt-Peterburg protokoli esa ayrim hududlarda yer va yaylovdan foydalanish, kanallarni saqlash hamda Kushk va Mog‘ur suvlari bilan bog‘liq shartlarni qayd etadi [14, 466–468-b.]. Bu bandlar barcha mahalliy ehtiyojlar to‘liq qondirilganini emas, balki muayyan resurslarga doir masalalar davlatlararo kelishuv predmetiga aylanganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, diplomatik hujjatda belgilangan qoida amalda hamma joyda to‘liq bajarilganini mavjud manbalar isbotlamaydi. Eng asosli xulosa shuki, demarkatsiya hududga va resurs turiga qarab turlicha ahamiyat kasb etgan: yaylovli va mavsumiy ko‘chish yo‘llari ustun bo‘lgan joylarda chorva boqish odatlari va an’anaviy foydalanish dalillarini aniqlash muhim bo‘lgan; daryo vodiylaridagi dehqonchilik hududlarida esa ekin maydonlari, kanal bosh qismi va suv oqimiga kirish masalalari ko‘proq ahamiyat kasb etgan. Mahalliy jamoalar uchun ta’sir ham bir xil bo‘lmagan: ayrim hollarda avvalgi yaylovlardan foydalanish dalillari chegara muhokamasiga kiritilgan, boshqa joylarda esa chegara chizig‘i sug‘oriladigan yer yoki kanalga nisbatan yangi ma’muriy sharoit yaratgan. Biroq mavjud dalillar bu o‘zgarishlarning har bir jamoa uchun aniq iqtisodiy natijasini yoki kelishuvlarning hamma joyda bajarilganini aniqlashga yetmaydi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. Бартольд В. В. История изучения Востока в Европе и в России. — СПб., 1911. — С. 221–222.

2. Халфин Н. А. Присоединение Средней Азии к России (60–90-е годы XIX в.). — М.: Наука, 1965. — С. 364–370.

3. Rodenbough T. F. Afghanistan and the Anglo-Russian Dispute: An Account of Russia’s Advance

toward India. — New York; London: G. P. Putnam’s Sons, 1885. — P. 12, 124.

4. Abdur Rahman Khan. The Life of Abdur Rahman, Amir of Afghanistan. Vol. I. — London: John Murray, 1900. — P. 241–245.

5. Abdur Rahman Khan. The Life of Abdur Rahman, Amir of Afghanistan. Vol. II. — London: John Murray, 1900. — P. 149–152.

6. Хидоятов Г. А. Британская экспансия в Средней Азии (Пенде, март 1885 г.). — Ташкент: Фан, 1981. — С. 58–62.

7. Jolly A. O. The Central Asian Paradigm in Anglo-Russian Relations, 1885–1895. — PhD thesis. — Norwich: University of East Anglia, 2022. — P. 31–55.

8. Fuoli F. “Incorporating north-western Afghanistan into the British empire: experiments in indirect rule through the making of an imperial frontier, 1884–87.” Afghanistan, 1.1 (2018), pp. 4–25.

9. Yate C. E. Northern Afghanistan; or, Letters from the Afghan Boundary Commission. — Edinburgh and London: William Blackwood and Sons, 1888. — P. 175–179 (bosma sahifalar).

10. Aitchison C. U. A Collection of Treaties, Engagements and Sanads Relating to India and Neighbouring Countries. Vol. XIII, Afghanistan section. — Calcutta, 1933. — No. VII, pp. 243–244; No. IX, pp. 248–250.

11. Holdich T. H. The Indian Borderland, 1880–1900. — London: Methuen & Co., 1901. — P. 150–153.

12. Ромодин В. А. Афганистан во второй половине XIX — начале XX в.: Официальная история и историография. — М.: Наука, 1990. — С. 88–94.

13. Афганское разграничение. Переговоры между Россией и Великобританией. 1872–1885. — СПб., 1886. — С. 215–219.

14. Мартенс Ф. Ф. Собрание трактатов и конвенций, заключенных Россией с иностранными державами. Т. XII: Трактаты с Англиею. 1832–1895. — СПб., 1898. — Протокол Санкт-Петербургский относительно разграничения афганских владений на левом берегу Аму-Дарьи от 10 (22) июля 1887 г. — С. 466–468.